Pokiston	217,1	265,0	3,0 m.	122,1	24	16
Ukraina	309,7	259,5	27,5	83,8	22	17
Bangladesh	548,2	221,1	163,3	40,3	20	18
Italiya	790,0	176,8	12,6 m.	22,4	18	19
Bolgariya	498,0	156,9	-	31,5	21	20

XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI


(2024- yil yanvar-mart)




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Urganch shahri 25,5 % bilan 25,3 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangibozor tumani 0,3 % bilan 0,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **4,2 mln.** AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **31,2 %** ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **4,2 %** ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (1,0 mln. AQSH dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (1,0 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (0,7 mln. AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari (0,5 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Tovarlar eksporti – agar qonunchilikda boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Reeksport – xorijiy tovarlar bojxona hududidan olib chiqiladigan bojxona rejimi.

Tovarlar importi – tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

Reimport – bojxona hududidan eksport rejimida olib chiqilgan O'zbekiston Respublikasi tovarlari O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida ko'rsatilgan muddatda (olib chiqilgan paytdan boshlab o'n yil ichida) qaytarib olib kiriladigan rejim.

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar kelib chiqqan mamlakat – tovar to'liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat "Bojxona tarifi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26- moddasiga asosan aniqlanadi).

Tovarlarning belgilangan manzili – yuklab jo'natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma'lum bo'lgan mamlakat.

Tovarlarning statistik qiymati – shartnoma valyutasidan qat'i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo'yicha tovarlar qiymati.

Xizmatlar (ishlar) eksporti — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Xizmatlar (ishlar) importi — norezidentlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

***Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

XII. XORAZM VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Xorazm viloyatining doimiy aholisi soni 2024- yilning 1-aprel holatiga **2002,8** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **7,3** ming kishiga yoki **0,4** %ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **661,9** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **33,0** %), qishloq aholisi soni **1 340,9** ming kishi (**67,0** %)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

2 002,8 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

(+)7,6 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



33,0%

Qishloq



67,0%


Doimiy aholining sonining yillar bo'yicha taqsimlanishi



— Aholi soni, ming kishi


— Yillar bo'yicha o'sish sur'ati %

Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar 2024- yil yanvar-mart




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni 2024- yil 1-aprel holatiga

Mehnatga layoqatli
yoshdan kattalar




2024- yil 1-aprel holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,1 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,6 % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,3 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi 2024- yil 1- aprel holatiga



Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Viloyatda 2024- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **331** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 6 kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga 325 kishi).

Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **5309** kishi, Xiva shahrida **2905** kishi, Urganch tumanida **481** kishi, Hazorasp tumanida **460** kishi, Xonqa tumanida **460** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumanida **37** kishi, Yangibozor tumanida **271** kishi, Yangiariq tumanida **307** kishi, Qo'shko'pir tumanida **339** kishini tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi
2024- yil 1-aprel holatiga

Shahar va tumanlar nomi	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	1965,2	2 002,8	101,9
shaharlar :			
Urganch sh.	150,7	153,8	102,1
Xiva sh.	97,3	99,0	101,7
tumanlar:			
Bog'ot	173,2	176,7	102,0
Gurlan	155,1	157,8	101,7
Qo'shko'pir	179,4	182,7	101,8
Urganch	210,2	214,5	102,0
Hazorasp	202,9	206,8	101,9
Tuproqqal'a	58,2	59,7	102,6
Xonqa	195,6	199,1	101,8
Xiva	152,4	155,4	102,0
Shovot	177,6	181,0	101,9
Yangiariq	121,4	123,5	101,7
Yangibozor	91,2	92,8	101,8

Xorazm viloyati shahar va tumanlari kesimida 2024- yil 1- aprel holatiga eng ko'p aholining o'sish surati Tuproqqal'a tumanida 2,6 foizga, Urganch shahrida 2,1 foizga , Bog'ot, Urganch tumani va Xiva tumanida 2,0 foizga kuzatilgan.

QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Shahar va tumanlar kesimida tug'ilishlar soni
2024-yil yanvar-mart, kishi



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti, kishi




2024-yil yanvar-mart oylarida 9 628 ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,4 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan 0,6 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-mart oylarida 20,0 promilleni tashkil etgan).

O'limlar soni




Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni

2024-yil yanvar-mart, kishi




Hududlar kesimida o'limlar soni va ko'effitsiyenti, kishi



2024-yilning yanvar-mart oylarida 2 057 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim ko'effitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etgan hamda 2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan 0,3 promillega kamaygani kuzatildi (2023- yilda 4,4 promilleni tashkil etgan).

O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart, kishi



2024- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o‘lim holatining 50,1 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,1 %i – o‘simtalardan, 5,3 %i – nafas olish aʼzolari kasalliklaridan, 4,5 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 %i – ovqat hazm qilish aʼzolari kasalliklaridan, 0,8 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 24,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik

Urganch sh.	228	6,0‰
Xiva sh.	305	12,4‰
Bog'ot	427	9,7‰
Gurlan	493	12,6‰
Qo'shko'pir	573	12,6‰
Urganch	412	7,7‰
Hazorasp	436	8,5‰
Tuproqqal'a	131	8,9‰
Xonqa	500	10,1‰
Xiva	495	12,8‰
Shovot	500	11,1‰
Yangiariq	315	10,3‰
Yangibozor	223	9,7‰

Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-mart, birlik

shahar	qishloq
228	Urganch sh.
305	Xiva sh.
71	Bog'ot
200	Gurlan
140	Qo'shko'pir
61	Urganch
63	Hazorasp
58	Tuproqqal'a
148	Xonqa
28	Xiva
128	Shovot
74	Yangiariq
34	Yangibozor

2024- yilning yanvar-mart oylarida 5 038 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 10,1 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,7 promillega kamaygani kuzatildi (2023-yilning yanvar-mart oylarida 10,8 promille bo'lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024-yil yanvar-mart, birlik



2024-yil yanvar-mart oylarida 508 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan 0,3 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yil yanvar-mart oylarida 1,4 promille bo'lgan).

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2024- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 2 707 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 3 028 kishini, migratsiya saldosi minus 321 kishini tashkil etdi. (2023- yil yanvar-mart oylarida minus 445 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni


(kishi)

	2023 - yil yanvar- mart			2024- yil yanvar- mart		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha:	2079	2524	-445	2707	3028	-321
<i>shaharlar:</i>						
Urganch sh.	491	561	-70	721	687	34
Xiva sh.	114	177	-63	104	226	-122
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	52	96	-44	64	104	-40
Gurlan	61	110	-49	81	166	-85
Qo'shko'pir	66	143	-77	109	174	-65
Urganch	511	362	149	665	491	174
Hazorasp	93	294	-201	115	252	-137
Tuproqqal'a	240	116	124	266	185	81
Xonqa	59	159	-100	78	196	-118
Xiva	152	176	-24	225	189	36
Shovot	65	147	-82	115	150	-35
Yangiariq	106	110	-4	84	110	-26
Yangibozor	69	73	-4	80	98	-18

KO'CHIB KELGANLAR



Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti
2024- yil yanvar-mart, kishi



Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, kishi



2024-yilning yanvar-mart oylarida 2 707 ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 5,4 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,1 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-mart oylarida 4,3 promille bo'lgan).



2024- yilning yanvar-mart oylarida 3 028 ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 6,1 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,9 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida 5,2 promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI


Ish haqi. 2024- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

Shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so'm)

Shahar va tumanlar	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm		O'sish sur'ati, %
	2023- yil	2024- yil	
Xorazm viloyati - jami:	3 422,7	4 008,6	117,1
<i>shu jumladan:</i>			
Urganch sh.	4 490,5	5 426,4	120,8
Xiva sh.	2 791,5	3 269,2	117,1
Bog'ot	2 832,6	3 175,5	112,1
Gurlan	2 581,2	2 930,1	113,5
Qo'shko'pir	2 758,2	3 074,3	111,5
Urganch	3 071,0	3 657,6	119,1
Hazorasp	2 668,9	2 927,1	109,7
Tuproqqal'a	4 513,1	5 121,5	113,5
Xonqa	2 885,9	3 225,6	111,8
Xiva	2 772,8	3 206,6	115,6
Shovot	2 801,3	3 098,2	110,6
Yangiariq	3 344,6	3 943,1	117,9
Yangibozor	2 407,5	2 915,4	121,1

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 5 426,4 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 135,4 %), Tuproqqal'a tumanida 5 121,5 ming so'mni (127,8 %) tashkil etgan bo'lsa, Yangibozor tumanida 2 915,4 ming so'mni (72,7 %), Hazorasp tumanida 2 927,1 ming so'mni (73,0 %), Gurlan tumanida 2 930,1 ming so'mni (73,1 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yil yanvar-martida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)




**Sohalar kesimida yuridik shaxslarda o‘rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**
(2024- yil yanvar- mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

<i>Sohalar nomi</i>	<i>O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m (yanvar- dekabr)</i>		<i>O‘sish sur‘ati, %</i>
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	
Xorazm viloyati - jami:	3 422,7	4 008,6	117,1
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	3 945,8	4 359,2	110,5
Qurilish	3 315,7	4 480,7	135,1
Savdo	2 806,7	3 141,4	111,9
Tashish va saqlash	6 415,0	8 640,0	134,7
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 167,2	2 490,8	114,9
Axborot va aloqa	6 269,3	7 881,8	125,7
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	8 889,2	11 106,3	124,9
Ta’lim	2 756,7	3 251,4	117,9
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2 985,5	3 505,0	117,4
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 476,1	2 871,2	116,0
Boshqa faoliyat turlari	3 926,0	4 550,8	115,9


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2024- yil yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 008,6 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 17,1% ga o‘sishi kuzatildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘sish sur‘ati qurilishda - 35,1 %, tashish va saqlash faoliyatida – 34,7 %, axborot va aloqada– 25,7 %, moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 24,9 %, ta’lim– 17,9 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 17,4 %, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarida – 14,9 %, savdoda – 11,9 %, sanoatda– 10,5 % darajada kuzatildi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘shish sur‘ati
(2024- yil yanvar-martda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)



Sanoat sohasida o‘rtacha oylik ish haqining yanvar- mart oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



2024- yil yanvar-mart oylarida sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 359,2 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2020- yilning huddi shu davrida 2 825,8 ming so'mni, 2021- yilda 2 717,9 ming so'mni, 2022- yilda 3 422,7 ming so'mni, 2023- yilda 3 945,8 ming so'mni tashkil qilgan va o'tgan yillarga nisbatan 154,3 % darajada ko'paygani kuzatildi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



4 273,6

*Ishlab chiqarish
sanoati*



2 577,8

*Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish*




5 803,1

*Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va
havoni konditsiyalash*


Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha 2024- yil yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik ish haqi ishlab chiqarish sanoatida – 4 273,6 ming so'mni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 2 577,8 ming so'mni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 5 803,1 ming so'mni tashkil qilgani ko'rsatilgan.

Sohalar kesimida yuridik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni

(2024- yil yanvar-mart, viloyatdagi ishlovchi xodimlarga nisbatan, % da)



Qurilish sohasida oʻrtacha oylik ish haqi



Qurilish sohasida oʻrtacha oylik ish haqining yanvar-mart oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



2024- yil yanvar-mart oylarida qurilish sohasi boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 480,7 ming soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, huddi shu davr 2020- yilda 2 261,8 ming soʻmni, 2021- yilda 2 762,8 ming soʻmni, 2022- yilda 3 132,6 ming soʻmni, 2023- yilda 3 315,7 ming soʻmni tashkil qilgan va oʻtgan yillarga nisbatan 98,1 % ga oshgani kuzatildi.

**Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni,
nominal hisoblangan ish haqi, o'rtacha oylik ish haqi**

(2024- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Ish haqi fondi, mln so'm</i>	<i>Ortacha oylik ish haqi, ming so'm</i>
	2024- y.	2024- y.	2024- y.
Xorazm viloyati – jami:	140 544	1 690147,3	4 008,6
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	19 520	255 276,1	4 359,2
Qurilish	2 073	27 865,3	4 480,7
Savdo	1 072	10 102,6	3 141,4
Tashish va saqlash	3 986	103 316,8	8 640,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	59	440,9	2 490,8
Axborot va aloqa	802	18 963,6	7 881,8
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2 438	81 231,8	11 106,3
Ta'lim	65 869	642 505,3	3 251,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	25 473	267 846,9	3 505,0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1 833	15 788,6	2 871,2
Boshqa faoliyat turlari	17 419	237 813,4	4 550,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, **sanoatda** - 19 520 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 255 276,1 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 359,2 ming so'mni, **qurilishda** – 2 073 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 27 865,3 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 480,7 ming so'mni, **savdoda** -1 072 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 10 102,6 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 141,4 ming so'mni, **tashish va saqlashda** – 3 986 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 103 316,8 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 640,0 ming so'mni, **axborot va aloqada** - 802 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 18 963,6 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 881,8 ming so'mni, **moliyaviy va sug'urta faoliyatida** – 2 438 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 81 231,8 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 11 106,3 ming so'mni, **ta'limda** -65 869 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 642 505,3 mln. so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 251,4 ming so'mni, **sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda** -25 473 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 267 846,9 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 505,0 ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida 2024-yilning yanvar-martida oʻrtacha oylik ish haqi



Oʻrtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, *ming soʻm*




2024- yil yanvar-mart oylarida tashish va saqlash sohasi boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 640,0 ming soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, huddi shu davr 2020- yilda 4 396,3 ming soʻmni, 2021- yilda 4 177,9 ming soʻmni, 2022- yilda 6 555,9 ming soʻmni, 2023- yilda 6 415,0 ming soʻmni tashkil qilgan va oʻtgan yillarga nisbatan 96,5% ga oshgani kuzatildi.

Ta'lim faoliyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko'rsatkichiga nisbatan)
(2024-yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>	<i>Viloyatga nisbatan foizda</i>
Xorazm viloyati	3 251,4	100,0
<i>shaharlar:</i>		
Urganch. sh	4 845,6	149,0
Xiva. sh	3 268,7	100,5
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	2 982,8	91,7
Gurlan	2 732,2	84,0
Qo'shko'pir	2 695,1	82,9
Urganch	2 867,9	88,2
Hazorasp	2 788,9	85,8
Tuproqqal'a	2 686,2	82,6
Xonqa	3 079,8	94,7
Xiva	2 920,7	89,8
Shovot	2 925,5	90,0
Yangiariq	3 491,6	107,4
Yangibozor	2 730,1	84,0

Ta'lim sohasida jami 65 869 nafar (jami viloyatdagi ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,9 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 251,4 ming so'mni tashkil etgan va 2023- yilning mos davriga nisbatan 17,9 % ga o'sdi.

Ta'lim faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm
(2024-yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.

XORAZM VILOYATINING STATISTIK AXBOROTNOMASI

2024- YIL YANVAR-MART

Nashrga mas'ul:

**Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi**
tel. 62-224-65-02

Buyurtma raqami № 2 26.04.2024- y. Tiraj 7 nusxa

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Urganch shahri, al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy**

veb-sayt: www.xorazmstat.uz
elektron pochta: xorazmstat@umail.uz